

Oila tarbiya va e'tiqodga tayanadi

TIQXMMI ma'ruzalar zalida 2019 yil 5 aprel kuni soat 15:00 da "Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" fakulteti talaba yoshlari uchun "SXTE va B" fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari J.Turdiyev hamda Institut xotin-qizlar qo'mitasi raisi Z.Hafizova hamkorligida "Talaba yoshlar o'rtasida diniy-ma'rifiy va Oilada farzand tarbiyasi va o'g'itlar" mavzusida Toshkent shahar Bosh imom xatibi o'rinbosari, "Islom ota" jome' masjidi imom xatibi Jasurbek Raupov ishtirokida ma'rifiy uchrashuv bo'lib o'tdi.

Tadbir davomida Imom xatib talaba yoshlarni Oila muqaddas qo'rg'on, Er-xotin munosabatlari, farzandlar va ota-onalar o'rtasidagi go'zal xulq-atvor, shukronalik, kattalarga va ustozlarga hurmat va ehtirom xususida Qur'oni karim va hadislar hamda diniy kitoblarda keltirilgan rivoyatlar, hayotiy misollar orqali yoshlar tafakkuri va shuuriga yetkazish borasida o'z fikr va mulohazalari, o'g'itlari va pand-nasihatlari bilan o'rtoqlashdi. Shuningdek, bugungi kunda oilaviy ajrimlar xususida to'xtalib, yoshlarni ijtimoiy tarmoqlar va har-xil madaniyatimiz va ma'naviyatimizga zid saytlar va ular orqali tag'ib qilinayotgan yot g'oyalardan saqlanish va ehtiyotkorlik va hushyorlikka undash bo'yicha o'z qimmatli fikr va mulohazalari bilan o'rtoqlashdi. Uchrashuv qizg'in savol-javoblar tarzida o'tdi.



**"SXTE va B" fakulteti dekani o'rinbosari J.Turdiyev axboroti
Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**